

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma huquqida:

UO ‘K 656.2:658-048.78(575.1)

XUDOYOROVA MEHRANGIZ MURODOVNA

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB
CHIQRISH SALOHIYATINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Ismailov Akmal Maqsudovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, prof.

Toshkent – 2026

KIRISH.....		3
I BOB	TRANSPORT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI.....	12
§ 1.1.	Transport korxonalarida ishlab chiqarish salohiyati mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	12
§ 1.2.	Temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar.....	28
§ 1.3.	Temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo‘yicha xorij tajribasi.....	42
	<i>Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	58
II BOB.	“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI	60
§ 2.1.	Temir yo‘l transporti korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati va faoliyati tahlili.....	60
§ 2.2.	Temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini baholash.....	76
§ 2.3.	Temir yo‘l transporti ishlab chiqarish tizimidagi funksional to‘siqlar va ularning iqtisodiy tahlili.....	88
	<i>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	99
III BOB	TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.....	101
§ 3.1.	Temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yo‘llari.....	101
§ 3.2.	Davlat temir yo‘l operatori va mahalliy sanoat korxonalarida o‘rtasida integratsion hamkorlik mexanizmini takomillashtirish..	112
§ 3.3.	Temir yo‘l transporti tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari.....	129
	<i>Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	145
XULOSA.....		147
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		150

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Transport tarmog'ining muhim va ajralmas qismlaridan biri bu – temir yo'l transporti tizimi hisoblanadi. Temir yo'l transporti tizimi hamda temir yo'l transporti ishlab chiqarish sanoatining jahon iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi tobora ortib bormoqda. Global miqyosda 2024-yilda temir yo'l uskunalari ishlab chiqarish bozori hajmi 85,66 milliard AQSh dollariga baholangan. Temir yo'l transporti ishlab chiqarish sanoatining iqtisodiyotda ulushi 2025-yilda 87,58 milliard AQSh dollariga yetishi va 2034-yilgacha 106,93 milliard AQSh dollariga o'sishi prognoz qilinmoqda. Shu davr mobaynida yillik o'sish sur'ati (CAGR) taxminan 2,24 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Shu bilan bir qatorda, temir yo'l infratuzilmasini barqaror saqlashda texnik xizmat va ta'mirlash uskunalari segmenti ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, sohada ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 11,95 milliard AQSh dollariga baholangan va 2032-yilda 15 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu segment temir yo'l tizimining xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlashda, xususan, temir yo'l izlarini muntazam saqlash va yangilash orqali, muhim qo'llab-quvvatlovchi vazifasini ta'minlab kelmoqda.¹

Temir yo'l transporti korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish masalasi bugungi kunda mamlakatimiz sanoat siyosati va iqtisodiy islohotlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda ushbu sohada ishlab chiqarish salohiyatining iqtisodiy mazmuni va uni amaliyot bilan uyg'unlashtirish yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi, korxonalar salohiyatini baholashda universal metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida samarali moliyalashtirish modeli to'liq shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa temir yo'l tarmog'ining barqaror rivojlanishiga, transport infratuzilmasining modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini ta'minlashga to'sqinlik qilib kelmoqda. Shu bois temir yo'l ishlab chiqarish salohiyatining tahlili va prognoz qiymatlarini shakllantirish

¹ Market Research Future (2024) sayti ma'lumotlariga asosan
<https://www.marketresearchfuture.com/reports/railroad-equipment-manufacturing-market-36097>

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasida belgilangan sanoatni diversifikatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Temir yo‘l transport tizimi mamlakatimiz transport tarmog‘ida ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyot, logistika va ijtimoiy integratsiyada muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, temir yo‘l transporti mamlakat transport tarmog‘ining asosiy negizini tashkil etadi va yagona transport tizimi ichida yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan mamlakatimizda temir yo‘l transport tizimini tubdan isloh qilish va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha bir qator islohotlar olib borilmoqda, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”², 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari,³ 2017-yil 2-dekabrda PQ-3422-son “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori,⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda PQ-329-sonli “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori⁵ hamda mazkur yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar temir yo‘l transport tizimining mamlakatimizdagi o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli famoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5647 sonli famoni <https://lex.uz/uz/docs/-4194107>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 dekabrda “2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3422 sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-3436209>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori <https://lex.uz/acts/-6631602>

oshrishga qaratilgan 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik maqsadlar transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish hamda mamlakatning geoiqtisodiy mavqeini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilgan. Ushbu strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida avvalo, respublika hududi orqali tranzit yuk tashish hajmini 16 million tonnagacha yetkazish vazifasi belgilangan bo'lib, bu mintaqaviy transport-kommunikatsiya markazi sifatida O'zbekistonning rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu islohotlar temir yo'l transporti sohasining mamlakatimizda hamda respublika sanoat sohasida ko'ndalang turgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglatadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarmoq iqtisodiyoti va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha soha klassik maktabi vakillari hisoblangan A.Smit, D.Rikardo kabi yetuk olimlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan. L.Valras, J.S.Mill, A.Marshall, P.Samuelson kabi noklassik maktab olimlari ishlab chiqarishni matematik model asosida tahlil qila boshladilar va "ishlab chiqarish funksiyasi" (production function) konsepsiyasi orqali "production potential"ni ilmiy atama sifatida shakllantirdilar. Institutsional maktab vakillaridan T.Veblen, D.Nort, sistemali yondashuvda esa L.Bertalanfi hamda Yu.M.Osipov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.⁶

MDH olimlaridan ushbu sohada A.I. Anchishkin, I.G. Sigantov, . V.M.

⁶ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 2013. – 654 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: Госполитиздат, 1955. – 360 с.; Вальрас Л. (Léon). Элементы чистой политической экономии. – Лозанна: Corbaz, 1874. – Первое издание.; Маршалл А. Принципы экономической науки. – Лондон: Macmillan, 2017. – Кн. IV «Факторы производства: земля, труд, капитал и организация» с. 115-124., Веблен Т. Теория праздного класса: экономическое исследование эволюции институтов. – Нью-Йорк: Macmillan, 1899. – 400 с.; Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – Кембридж: Cambridge University Press, 2015. – 164 с.; Берталанфи Л. фон. Общая теория систем: основы, развитие, приложения. – Нью-Йорк: G. Braziller, 2008. – 320 с.; Экономическая теория на пороге XXI века – 4: Финансовая экономика / Под ред. Ю.М. Осипова, В.Г.Белоплицкого, Е.С. Зотовой. – М.: Юрист, 2010. – 704 с.